



XALQ DEPUTATLARI SHIRIN SHAHAR KENGASHI Q A R O R I

2021 йил «30» декабрь

VI-40-100-9-131-K/21

Ширин шаҳар ҳокимлиги

2022-yilgi Shirin shahar mahalliy budjeti daromadlari va xarajatlarining prognoz ko'rsatkichlarini belgilash to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi Qonunining 6, 24, 25-moddalari, Budget Kodeksining 99-moddasi, "2022-yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to'g'risida"gi Qonunga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining 2021-yil 30-dekabrda 01/20-01-32/843-sonli xatini inobatga olib, 2022-yilgi shahar mahalliy budjeti daromadlari va xarajatlarining prognoz ko'rsatkichlarini belgilash maqsadida Xalq deputatlari Shirin shahar Kengashi qaror qiladi:

1. Shirin shaharning (keyingi o'rinlarda – shahar) yalpi hududiy mahsulot bo'yicha prognoz ko'rsatkichlari 1-ilovaga muvofiq;

shahar mahalliy budjeti daromadlari prognoz ko'rsatkichlari 2-ilovaga muvofiq;

2022-yil uchun shahar mahalliy budjetining daromadlari va xarajatlari prognozlari 3-ilovaga muvofiq;

shahar mahalliy budjeti mablag'larini taqsimlovchilarga ajratiladigan xarajatlarning umumiy cheklangan miqdorlari 4-ilovaga muvofiq;

shahar mahalliy budjetiga ajratiladigan tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar miqdorlari 5-ilovaga muvofiq;

mol-mulkni ijaraga beruvchi jismoniy shaxslar uchun belgilangan ijara to'lovining eng kam stavkalari 6-ilovaga muvofiq (soliq solish maqsadlari uchun);

tovarlarning ayrim turlari bilan chakana savdo qilish xuquqi uchun undiriladigan yig'implarning cheklangan stavkalari 7-ilovaga muvofiq;

avtotransport yig'implarning stavkalari 8-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Shahar moliya bo'limi tomonidan;

Advokatlar tomonidan yuridik yordam ko'rsatganlik uchun haq to'lash xarajatlari shahar moliya bo'limlari tomonidan viloyat moliya bosh boshqarmasiga taqdim qilingandan talabnomalar asosida shahar mahalliy budjetlariga ajratib borilishini;

Davlat organlari yoki ushbu organlar mansabdor shaxslarining qonunga xilof harakatlari (harakatsizligi) natijasida fuqarolar yoki yuridik shaxslarga yetkazilgan zararni qoplash xarajatlari sud qarorlari asosida shahar mahalliy budjetlari orqali moliyalashtirib borilishini;

Davlat tibbiy sug'urta jamg'armasiga transfertlarni har oyda ajratilgan mablag'lar doirasida o'tkazib berilishini ta'minlasin.

Bunda, Davlat tibbiy sug'urta jamg'armasiga transfertlarning oylar kesimida taqsimlangan miqdorlariga o'zgartirish kiritish hamda yillik ajratilgan qo'shimcha transfertga talabnomalar Davlat tibbiy sug'urta jamg'armasi agentligining takliflari asosida amalga oshiriladi va Davlat tibbiy sug'urta jamg'armasiga o'tkazilgan transfertlarni to'g'ri ishlatilishi bo'yicha javobgarlik Davlat tibbiy sug'urta jamg'armasi agentligiga yuklatilsin.

3. O'zbekiston Respublikasining "2022-yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to'g'risida"gi Qonuniga asosan (keyingi o'rinlarda – Qonun) O'zbekiston Respublikasi hududiga tovarlarni olib kirishda qo'llaniladigan bojxona bojlari stavkalari O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori bilan tasdiqlanadi.

4. Qonunning 6-moddasiga asosan 2022-yil uchun respublika budjetidan shahar mahalliy budjetiga ajratiladigan tartibga soluvchi budjetlararo transfert 25148,1 mln. so'm miqdorida tasdiqlanganligi inobatga olinsin.

5. 2022-yil uchun shahar budjeti zahira jamg'armasi hajmi 374,5 mln. so'm miqdorida belgilansin.

6. Shahar budjetining 2022-yil uchun zahira jamg'armasi tegishli budjetlar tasdiqlangan umumiy xarajatlarining kamida 1,0 foizi miqdorida shakllantiriladi.

7. Shahar budjetining olti oylik ijrosi yakunlari bo'yicha daromad prognozlarini bajarilmagan va joriy moliya yilining oxirigacha ularning kelib

tushishi uchun yetarli asoslar mavjud bo‘lmagan hollarda shahar mahalliy budjetining xarajatlarini qisqartirish bo‘yicha qarorlar tegishincha xalq deputatlari shahar Kengashlari tomonidan qabul qilinishi belgilansin.

Bunda, xarajatlarni qisqartirishda budjet tashkilotlarining va budjet mablag‘lari oluvchilarning budjet mablag‘larini o‘zlashtirishi, shuningdek qabul qilingan yuridik va moliyaviy majburiyatlari hisobga olinadi. Bunda, ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlarni kamaytirish O‘zbekiston Respublikasining Budjet kodeksi 120-moddasiga muvofiq amalga oshiriladi.

8. Qonunga muvofiq soliqlarning quyidagi turlari shahar budjetlariga:

jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i;

jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i;

jismoniy shaxslarga tegishli mol-mulkni ijaraga berishdan oladigan yillik daromadi to‘g‘risidagi deklaratsiyaga asosan to‘laydigan, shuningdek yakka tartibdagi tadbirkorlar to‘laydigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i;

suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq, bundan elektr stansiyalari tomonidan to‘lanadigan soliq mustasno;

qurilish materiallari bo‘yicha yer qa‘ridan foydalanganlik uchun soliq.

Viloyat budjetiga quyidagilar:

yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq;

yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i;

elektr stansiyalari tomonidan to‘lanadigan suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq;

benzinni, dizel yokilg‘isini va gazni yakuniy iste‘molchilarga realizatsiya qilishdagi aksiz solig‘i;

aylanmadan olinadigan soliq;

qonunchilikda belgilangan miqdorlardagi davlat bojlari (patent bojlaridan va litsenziyalar berganlik uchun davlat bojlaridan tashqari);

qonunchilikda belgilangan miqdorlarda O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjetiga undiriladigan jarimalar;

ayrim turdagi tovarlarning chakana savdosiga doir huquq uchun yig'imglar;

qonunchilikda belgilangan miqdorlarda O'zbekiston Respublikasining Davlat budjetiga undiriladigan boshqa yig'imglar (bojxona organlari tomonidan undiriladigan yig'imglar va g'ildirakli transport vositalari, o'ziyurar mashinalar va ularning tirkamalari uchun undiriladigan utilizatsiya yig'imidan, shuningdek avtotransport vositalari oynalarining tusini o'zgartirishga (qoraytirishga) ruxsatnoma berish uchun to'lovdan tashqari);

qonunchilikda belgilangan miqdorlarda davlat daromadiga o'tkazilgan mol-mulkni realizatsiya qilishdan tushgan tushumlar, mahalliy davlat hokimiyati organlarining ulushi bo'yicha dividendlar (daromadlar) va ajratmalar;

davlat aktivlarini joylashtirishdan, foydalanishga (ijaraga) berishdan va sotishdan qonunchilikda belgilangan normativlar bo'yicha olingan daromadlar;

jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'idan tushumlarning (jismoniy shaxslar mol-mulkini ijaraga berishdan oladigan yillik daromadi to'g'risidagi deklaratsiyaga asosan to'laydigan, shuningdek yakka tartibdagi tadbirkorlar to'laydigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'idan tashqari) 20 foizi;

yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq va yuridik shaxslar yer solig'i 10 foiz;

boshqa daromadlar 100 foizi;

9. Mobil aloqa xizmatlari, tamaki va alkogol mahsuloti, shu jumladan pivo uchun aksiz solig'i bo'yicha tushumlar tegishincha 2021-yilning 1-iyul holatiga ko'ra, shahar aholisi sonining viloyat aholisi sonidagi ulushiga muvofiq o'tkazib beriladi.

10. Qonunning 12-moddasiga asosan shahar budjetini barqarorligini ta'minlash maqsadida umumdavlat soliqlaridan ajratmalar me'yorlari 9-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

11. Qonunga muvofiq Xalq deputatlari shahar Kengashi shaharning ommaviy dam olish va (yoki) turizmga ixtisoslashtirilgan ayrim hududlarida ijara to'lovi bo'yicha eng kam stavkalarga hamda yakka tartibdagi tadbirkorlar to'laydigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining qat'iy belgilangan miqdorlariga Toshkent shahri uchun belgilangan miqdorlargacha o'sib boruvchi koeffitsientlarni kiritishga xaqli.

Agar qonunchilikda mahalliy budjetlarga o'tkaziladigan daromadlarning taqsimlanishi nazarda tutilmagan bo'lsa, daromadning ushbu turi shahar budjetiga o'tkaziladi.

12. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 3-dekabrdagi PF-6121-sonli Farmoni 1-bandida belgilangan vakolatlar doirasida qishloq xo'jaligi uchun mo'ljallanmagan yerlar uchun tuman va shaharlar kesimida, ularning iqtisodiy rivojlanishiga qarab, yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'ining mutloq miqdorida bazaviy soliq stavkasi 10-ilovaga, jismoniy shaxslardan (dehqon xo'jaligini yuritish uchun berilgan qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlardan tashqari) undiriladigan mutloq miqdorida 1 kv.m. uchun belgilangan bazaviy soliq stavkasi 11-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

13. Mahalliy davlat hokimiyati organlarining tashabbusiga ko'ra amalga oshiriladigan qo'shimcha tadbirlarni moliyalashtirish faqat shahar mahalliy budjetining qo'shimcha manbalari hisobidan amalga oshirilishi belgilab qo'yilsin.

14. Shahar hokimligi tegishli budjetlarini birinchi navbatda ish xaqi va unga tenglashtirilgan to'lovlar, oziq-ovqat, dori-darmon va kommunal xizmat xarajatlari rejalashtirilishini nazarda tutgan holda shakllantirsin.

15. Shahar hokimligi choraklar yakuni bo'yicha daromad prognoz ko'rsatkichlari mahalliy ijro hokimiyati organlarining faoliyatiga bog'liq bo'lmagan holda besh foizdan ortiq miqdorga bajarilmagan taqdirda va moliya yili oxirigacha prognoz ko'rsatgichidagi mablag'larning tushish ehtimoli bo'lmasa, xarajatlarni maqbullashtirish yuzasidan ko'rilgan choralar bilan birgalikda tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar miqdorini oshirish yuzasidan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga taklif kiritilishini ta'minlasin.

16. Qonunga muvofiq 2022-yildan boshlab:

shaharning umumta'lim muassasalarini, maktabgacha ta'lim tashkilotlarini, sog'liqni saqlash muassasalarini qurish, rekonstruksiya qilish va mukammal ta'mirlashga, shuningdek sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilashga oid tadbirlar doirasida ob'ektlardagi ta'mirlash-tiklash ishlariga doir xarajatlar viloyatning viloyat budjetidan;

advokatlar tomonidan ko'rsatilgan yuridik yordam uchun haq to'lash tegishincha, viloyatning viloyat budjetidan;

ko'p kvartirali uy-joy fondiga tutash hududlarni ta'mirlash xarajatlari va

O‘zbekiston Respublikasi Uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish vazirligi tizimiga kiruvchi issiqlik ta‘minoti tashkilotlarining issiqlik tarmoqlari va qozonxona uskunalari kapital ta‘mirlash xarajatlari viloyatning viloyat budjetidan moliyalashtiriladi.

Hududlarda barcha issiqlik energiyasini yetkazib beruvchi korxonalar tomonidan ko‘rsatiladigan issiqlik ta‘minoti xizmatlari uchun tartibga solinadigan narxlar (tariflar) ular bo‘yicha dastlab O‘zbekiston Respublikasi Monopoliyaga qarshi kurashish qo‘mitasining hududiy organlari xulosalariga ko‘ra, xalq deputatlari viloyat Kengashi qarori bilan ma‘qullanganidan so‘ng viloyat hokimi tomonidan tasdiqlanishi;

issiqlik ta‘minoti bo‘yicha xizmatlar uchun tartibga solinadigan narxlarni (tariflarni) yil davomida qayta ko‘rib chiqish yakunlariga ko‘ra, issiqlik bilan ta‘minlovchi korxonalar aholiga pasaytirilgan tariflar qo‘llanilishi natijasida ko‘rgan zararlarining o‘rnini qoplash uchun qo‘shimcha mablag‘larga bo‘lgan talab viloyatning viloyat mahalliy budjetining qo‘shimcha manbalari hisobidan qoplanishi belgilanganligi ijro uchun qabul qilinsin.

Shaharni tegishli budjetini tasdiqlangan umumiy xarajatlarining 5 foizini jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga yo‘naltiriladi.

Shahar budjetini qo‘shimcha mablag‘larining kamida 30 foizi jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga yo‘naltiriladi.

17. Shahar hokimligi shahar mahalliy budjetining qo‘shimcha manbalari hisobidan xarid qilingan tovarlar va xizmatlar, qurilish, rekonstruksiya qilish va ta‘mirlash ishlari olib borilayotgan ob‘ektlar ro‘yxati, shuningdek qurilish-ta‘mirlash ishlarining moliyalashtirilishi to‘g‘risidagi ma‘lumotlar har chorak yakunlariga ko‘ra, keyingi chorak birinchi oyining 10 sanasiga qadar tegishincha majburiy tartibda o‘z rasmiy veb-saytlariga joylashtirib borsin.

18. Ushbu qaror ijrosini tashkillashtirish shahar hokimining birinchi o‘rinbosari M. Kuvandikov zimmasiga yuklatilsin.

19. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari shahar Kengashining Mahalliy budjetni shakllantirish va ijro etish, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari doimiy komissiyasi (N. Xo‘janov) zimmasiga yuklatilsin.

20. Maskur qaror kuchga kirishi munosabati bilan deputatlari shahar Kengashining 2020-yil 30-dekabrda 97/22-06-sonli qarori o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblansin.

21. Qaror qabul qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

Shahar hokimi



S.Sultonov

Халқ депутатлари Ширин шаҳар
Кенгашининг
2021 йил 30 декабрдаги
VI-40-100-9-131-К/21-сон қарорига
1-илова

**Shirin shaharning 2022-yilga rivojlantirishning makroiqtisodiy
ko'rsatkichlari prognoz ko'rsatkichlari**

№	Ko'rsatkichlar	2022-yil uchun prognoz
1.	Yalpi hududiy mahsulot, mlrd.so'm	
2.	Yalpi hududiy mahsulotning o'sish sur'ati, foizda	
3.	Ist'emol narxlari indeksi, dekabrda avvalgi yil dekabr oyiga nisbatan, foizda	
4.	Sanoat mahsulotlarining o'sish sur'ati, foizda	110,5
5.	Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaliklarida ishlab chiqarishning o'sish sur'ati, foizda	101,4
6.	Chakana tovar aylanmasining o'sish sur'ati, foizda	102,2
	<i>savdo, yashash va ovqatlanish xizmati o'sish sur'ati, foizda</i>	105,0

Халқ депутатлари Ширин шаҳар
Кенгашининг
2021 йил 30 декабрдаги
VI-40-100-9-131-К/21-сон қарорига
2-илова

Shirin shahar mahalliy byudjeti daromadlari prognoz ko'rsatkichlari

		ming so'mda
T/R	Daromad turlari	Jami
	Jami daromadlar	14 554 062
I.	Rag'batlantiruvchi (Stimuliruyuvchi) daromad	6 700 248
1	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i	6 700 248
II.	Biriktirilgan daromadlar	4 806 914
	Shaharga biriktirilgan	1 643 639
1	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	226 540
2	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i (ITD)	126 660
3	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig'i	534 863
4	Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	643 944
5	Ijara to'lovlari (jismoniy mol-mulk ijarasiga)	111 632
	Viloyat va shaharlar byudjetlari o'rtasida taqsimlanadigan daromadlar	3 163 275
1	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	1 176 210
2	Yuridik shaxslar yer solig'i	183 761
3	Yagona soliq to'lovi	1 803 304
III.	Taqsimlanuvchi daromadlar (formula bo'yicha)	3 046 900
	<i>Aholi soni (ming kishi)</i>	<i>18,9</i>
1	Alkogolga aksiz solig'i (shu jumladan pivo)	1 153 200
2	Mobil aloqaga aksiz solig'i	656 920
3	Tamaki mahsuloti uchun aksiz solig'i	1 236 780

Халқ депутатлари Ширин шаҳар
Кенгашининг
2021 йил 30 декабрдаги
VI-40-100-9-131-К/21-сон қарорига
3-илова

**2022-yil uchun shahar mahalliy byudjetlarining daromadlari va xarajatlari
prognozlari**

(ming soʻmda)

Hudud nomi	Daromad *	Xarajat
JAMI	14 554 062	39 702 170
Shirin shahri	14 554 062	39 702 170

* Mobil aloqa xizmati va alkogol mahsulotlari, shu jumladan pivo uchun aksiya soligʻi tushumlaridan ajratiladigan mablagʻlarni inobatga olgan holda

Халқ депутатлари Ширин шаҳар
Кенгашининг
2021 йил 30 декабрдаги
VI-40-100-9-131-К/21-сон қарорига
4-илова

**Shirin shahar mahalliy byudjeti mablag‘larini taqsimlovchilarga
ajratiladigan xarajatlarning umumiy cheklangan miqdorlari**

Халқ депутатлари Ширин шаҳар
Кенгашининг
2021 йил 30 декабрдаги
VI-40-100-9-131-К/21-сон қарорига
5-илова

**Shirin shahar mahalliy byudjetlariga ajratiladigan tartibga soluvchi
byudjetlararo transfertlar miqdorlari**

Hudud nomi	Tartibga soluvchi transfert miqdori
JAMI	25 148 108
<i>shundan</i>	
Shirin shahri	25 148 108

Халқ депутатлари Ширин шаҳар
Кенгашининг
2021 йил 30 декабрдаги
VI-40-100-9-131-К/21-сон қарорига
6-илова

**2022-yil uchun mol-mulkni ijaraga beruvchi jismoniy shaxslar uchun
belgilangan ijara to'lovining eng kam stavkalari**

№	Ijaraga beriladigan mol-mulk turi	Belgilangan stavka miqdorini tavsiflovchi ko'rsatkich	Oylik ijara stavkalarining eng kam miqdorlari, so'mda
			Shirin shahri
1	Uy-joylar:		
	turar joy	umumiy maydonning	4 000
	noturar joy	1 kv.metri uchun	7 000
2	Avtomobil transporti:		
	yengil avtomobil (yo'lovchilar, bagaj tashishga mo'ljallangan hamda haydovchi o'rnini hisoblamaganda, o'rindiqlari soni 8 tadan ko'p bo'lmagan avtotransport vositasi)	1 ta avtotransport vositasi uchun	575 000
	mikroavtobuslar, avtobuslar va yuk avtomobillari		1 150 000

Izoh: Mazkur stavkalar jismoniy shaxslarning mol-mulkni ijaraga berishdan olingan daromadlariga soliq solish maqsadida qo'llaniladi.

Халқ депутатлари Ширин шаҳар
Кенгашининг
2021 йил 30 декабрдаги
VI-40-100-9-131-К/21-сон қарорига
7-илова

**2022-yil uchun tovarlarning ayrim turlari bilan chakana savdo qilish huquqi
uchun undiriladigan yig'implarning cheklangan stavkalari**

Yig'implarning turlari	Bir oyga chegaralangan stavkalar (so'mda)	
	Shirin shahri	boshqa aholi punktlari
Alkogolli mahsulotlarni sotish huquqi uchun undiriladigan yig'im	900 000	700 000
Umumiy ovqatlanish korxonalarini uchun alkogolli mahsulotlarni sotish huquqi uchun undiriladigan yig'im	500 000	350 000

Халқ депутатлари Ширин шаҳар
Кенгашининг
2021 йил 30 декабрдаги
VI-40-100-9-131-К/21-сон қарорига
8-илова

2022-yil uchun avtotransport yig'implarnng stavkalari

№	Yig'implar va to'lovlar turlari	Yig'implar stavkalari
I	Xorijiy davlatlar avtotransport vositalarini O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kirishda va tranzitda harakatlanishi uchun yig'implar	AQSh dollarida
1	Xorijiy davlatlar avtotransport vositalarini O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kirishda va tranzitda harakatlanishi uchun yig'im, bitta avtomobil tashuvchi uchun (2-5 bandlarda ko'rsatilgan mamlakatlar bundan mustasno)	400
2	Tojikiston Respublikasi yuk avtomashinalarini O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kirish va tranzitda harakatlanganligi uchun yig'implar:	
	10 tonnagacha	100
	10 tonnadan 20 tonnagacha	150
	20 tonnadan yuqori	200
3	Qozog'iston Respublikasi yuk avtomashinalarini O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kirish va tranzitda harakatlanganligi uchun yig'implar:	300
4	Qirg'iziston Respublikasi yuk avtomashinalarini O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kirish va tranzitda harakatlanganligi uchun yig'implar:	300
5	Turkmaniston Respublikasi yuk avtomashinalarini O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kirish va tranzitda harakatlanganligi uchun yig'implar:	
	10 tonnagacha	50
	10 tonnadan 20 tonnagacha	100
	20 tonnadan yuqori	150
II	Avtotransport vositalarini sotib olganlik va (yoki) O'zbekiston Respublikasi hududiga vaqtinchalik olib knrganlik uchun yng'im	
	Yangi hamda foydalanishda bo'lgan avtotransport vositalari bo'yicha	xarid qilish narxining 1 foizi

Izoh:

1. O'zbekiston Respublikasi hududi bo'ylab xorijiy davlatlarning og'ir yuk tashuvchi va yirik gabaritli transport vositalari o'tganligi uchun mazkur ilovada nazarda tutilgan stavkalar bo'yicha yig'im to'lanishi bilan bir qatorda qo'shimcha ravishda qonunchilikda belgilangan miqdorlarda to'lov undiriladi.

2. O'zbekiston Respublikasiga uchinchi mamlakatlardan yuklar olib o'tishda va O'zbekiston Respublikasi hududidan yuklarni olib chiqishda Turkmaniston yuk avtotransport vositalaridan qo'shimcha ravishda 175 AQSh dollari miqdorida yig'im undiriladi.
3. Gumanitar yuklarni olib o'tishda avtotransport vositalarining olib kirilishi va tranzitida undiriladigan yig'imlar stavkasiga nisbatan 0,5 kamaytiruvchi koeffitsienti qo'llaniladi.
4. Agar O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida boshqacha qoidalar belgilangan bo'lsa, xalqaro shartnoma qoidalari qo'llaniladi.

Халқ депутатлари Ширин шаҳар Кенгашининг
2021 йил 30 декабрдаги
VI-40-100-9-131-К/21-сон қарорига
9-илова

2022-yil uchun shahar byudjetiga umumdavlat soliqlaridan ajratmalar me'yorlari

T/R	Hudud nomi	Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'i	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig'i	Jismoniy shaxslarning mulklarni ijaraga berishidan olinadigan yillik daromadlari bo'yicha deklaratsiyaga asosan hamda yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan to'lanadigan daromad solig'i	Qurilish materiallari bo'yicha yer qar'ridan foydalanganlik uchun soliq, bunda sement xom ashyosi va sement ishlab chiqarishda foydalaniladigan ohaktosh mustasno	Ijara to'lovlari	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq, bunda elektr stansiyalari tomonidan to'lanadigan soliq mustasno	Aylanmadan olinadigan soliq	Yuridik shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'i	Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'i	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i
1	Shirin shahri	100	100	100	100	100	100	100	10	10	20

Халқ депутатлари Ширин шаҳар
Кенгашининг
2021 йил 30 декабрдаги
VI-40-100-9-131-К/21-сон қарорига
10-илова

**Qishloq xo‘jaligi uchun mo‘ljallanmagan yerlar uchun yuridik shaxslar
bo‘yicha 1 gektar uchun mutloq miqdorda belgilangan bazaviy soliq
stavkasiga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlar**

T/R	Mahallalar nomi	Koeffitsient (0,5 dan 2 gacha)	Yer solig‘i stavkasi 2022 yil uchun (ming.so‘m)
1	Do‘stlik mahallasi	1,0	22000,0
2	Amur Temur mahallasi	1,0	22000,0
3	Mirzo Ulug‘bek mahallasi	1,0	22000,0
4	Bunyodkor mahallasi	1,0	22000,0
5	Farxod mahallasi	1,0	22000,0
6	Nurobod mahallasi	1,0	22000,0
7	Vatanparvar mahallasi	1,0	22000,0

Izoh: Shahar Kengashlari tomonidan yuridik shaxslar uchun yer solig‘i stavkasini mahalla fuqarolar yig‘inlari kesimida shahar markazlari uzoq-yaqinligiga qarab, 0,7-3,0 kamaytiruvchi va ko‘paytiruvchi koeffitsientlarni belgilash huquqiga ega.

Халқ депутатлари Ширин шаҳар
Кенгашининг
2021 йил 30 декабрдаги
VI-40-100-9-131-К/21-сон қарорига
11-илова

Jismoniy shaxslar bo'yicha (dehqon xo'jaligini yuritish uchun berilgan qishloq xo'jaligiga mo'ljallagan yerlardan tashqari) mutloq miqdorda 1 kv.m. uchun belgilangan bazaviy soliq stavkalariga nisbatan kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlar

T/R	Mahallalar nomi	Koeffitsient (0,5 dan 2 gacha)	Yer solig'i stavkasi 2022 yil uchun
1	Do'stlik mahallasi	1,0	205,0
2	Amur Temur mahallasi	1,0	205,0
3	Mirzo Ulug'bek mahallasi	1,0	205,0
4	Bunyodkor mahallasi	1,0	205,0
5	Farxod mahallasi	1,0	205,0
6	Nurobod mahallasi	1,0	205,0
7	Vatanparvar mahallasi	1,0	205,0

Izox: Shahar Kengashlari tomonidan jismoniy shaxslar uchun yer solig'i stavkasini mahalla fuqarolar yig'inlari kesimida shahar markazlari uzoq-yaqinligiga qarab, 0,7-3,0 kamaytiruvchi va ko'paytiruvchi koeffitsientlarni belgilash huquqiga ega.